

«Humans | AliExpress» Aksiyasi shartlari

«Humans | AliExpress» Aksiyasi (keyingi o'rinda – Aksiya) "Humans" mas'uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2B uy, STIR 306624856 (Provayder) tomonidan o'tkaziladi, va taqdim etiladigan servislarni sonini kengaytirish, Provayder tomonidan ko'rsatiladigan aloqa xizmatlariga qiziqishni oshirishga qaratilgan.

1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Mazkur Qoidalarda bosh harflardan boshlanadigan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar ma'nosi HUMANS aloqa xizmatlarini taqdim etish Shartlarida keltirilgan, ular provayder tomonidan tasdiqlangan hamda www.humans.uz saytida joylashtirilgan HUMANS aloqasi xizmatlarini ko'rsatish Shartlarida, Tariflar tavsifida, hamda "Ravnaq-bank" AJ tomonidan tasdiqlangan va www.rbk.uz saytida joylashtirilgan Humans moliyaviy servislarni taqdim etish qoidalarida keltirilgan (agar ushbu Qoidalarda boshqasi belgilanmagan bo'lsa).

1.2. **AliExpress** - Provayder hamkori, АЛИЭКСПРЕСС РАША ХОЛДИНГ ПТЕ. ЛТД. manzil - 8, Shenton Vey, № 45-01, AKSA Tauer, Singapur, 068811, Ro'yxat raqami 201917627W.

1.3. Aksiya ishtirokchilari — bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga amal qiluvchi jismoniy shaxs bo'lgan mijozlar:

1.3.1. 11.01.2021-y. gacha Provayder bilan Aloqa xizmatlarini taqdim etishga shartnoma tuzgan va promokodga ega bo'lish vaqtida istalgan pulli tarif rejasini ulagan.

1.3.2. "Ravnaq-bank" AJ bilan Humans moliya servisining taqdim etilishi uchun shartnoma tuzgan va Humans bank kartasini faollashtirgan.

1.3.3. aliexpress.ru saytida ro'yxatdan o'tgan va avval ushbu saytda birorta xaridni amalga oshirmagan.

1.4. Promokod - AliExpress tomonidan ishlab chiqariladigan noyob harf-raqamli kod faqatgina Aksiya Ishtirokchilariga aliexpress.ru saytida chegirma taqdim etilishi uchun mo'ljallangan.

1.5. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasi

1.6 Aksiya amal qilish davri: 11.01.2021-y. dan 28.02.2021-y. gacha.

2. Aksiya tavsifi

2.1. Aksiya ishtirokchisi aliexpress.ru saytida ro'yxatdan o'tgan va avval ushbu saytda birorta xarid yoki buyurtmani amalga oshirmagan bo'lsa, aliexpress.ru saytida birinchi xarid vaqtida chegirma olish huquqini beradigan promokodni olishi mumkin.

2.2. Promokodni maxsus internet-sahifalar orqali olish mumkin: <https://humans.uz/ru/aliexpress-promo/>, <https://humans.uz/uz/aliexpress-promo/>. Buning uchun mijoz o'z Humans telefon raqamini hamda bank kartasining so'nggi 4 ta raqamini kiritishi lozim.

2.3. Chegirma miqdori 250 Rossiya rublining ekvivalentiga teng miqdorda bo'ladi. aliexpress.ru saytida to'lanishi kerak bo'lgan summa yoki umumiy buyurtma narxi 500 rubldan ko'proq bo'lsa yoki boshqa valyutada mazkur ekvivalentga teng summadan ortisagina chegirma taqdim etiladi.

2.4. Promokoddan har bir Ishtirokchi faqatgina bir marta va faqatgina aliexpress.ru saytida birinchi xarid yoki buyurtma uchun, ushbu xarid yoki buyurtma uchun umumiy to'lov summasi 500 rubl ekvivalentiga teng summadan ko'proq bo'lsa foydalanishi mumkin bo'ladi.

2.5. Promokoddan foydalanish uchun Aksiya Ishtirokchisi Aksiya o'tkazilish Davrida Promokodni aliexpress.ru saytida buyurtmani rasmiylashtirish vaqtida kiritishi kerak. Promokod faqatgina to'lov uslubi tasdiqlanganidan (masalan, bank kartasi bog'langanidan) keyin kiritiladi. Agar Promokod to'lov uslubi tasdiqlanishidan avval qo'llanilsa, Promokod bekor qilinadi. Aksiya shartlariga amal qilingan bo'lsa, Promokod faollashtiriladi va buyurtmani rasmiylashtirish vaqtida Aksiya Ishtirokchisi kiritishi lozim bo'lgan umumiy summa natijasidan AliExpress tomonidan belgilangan chegirma ayiriladi. Aksiya amal qilish Davridan tashqari Promokoddan foydalanish yoki faollashtirish bo'yicha har qanday urinishlarga yo'l qo'yilmaydi, Aksiya davri yakunlanganidan keyin Promokod amal qilmaydi.

2.6. Promokoddan faqat xaridlar yoki buyurtmalar uchun foydalanish mumkin, bunda yetkazish manzili O'zbekiston Respublikasi hududi bilan chegaralanadi.

2.7. aliexpress.ru saytidagi quyidagi xaridlar uchun Promokoddan foydalanib bo'lmaydi:

- maxsus aksiya bo'yicha tovar xarid qilish (masalan, kupon aksiyalari doirasida)
- "keshbek" nazarda tutilgan aksiyali xaridlar; yoki
- aliexpress.ru saytida sotuvchi yoki uchinchi tomon ta'minotchilari tomonidan taqdim etiladigan qo'shimcha xizmatlar uchun, shu jumladan (ammo shu bilan chegaralanmagan holda) yetkazish xizmatlari va kafolat xizmatlari uchun.

2.8. Promokoddan yaxlit holda foydalanish kerak, hamda Promokod nominali bo'linishi mumkin emas. Agar Promokodning qandaydir bir qismidan foydalanilmagan bo'lsa (masalan, agar aliexpress.ru saytida buyurtma yoki operatsiya narxi Promokod nominalidan kamroq bo'lsa), uning farqi Aksiya Ishtirokchisiga qoplanib berilmaydi yoki har qanday boshqa yo'l bilan qaytarilmaydi, bunday foydalanilmagan nominal kuyib ketadi va avtomatik ravishda muomaladan chiqarib yuboriladi.

2.9. Aksiya ishtirokchisi aliexpress.ru saytining qaytarish siyosatiga muvofiq Promokod bilan xarid qilingan tovar(-lar)ni qaytarishga, hamda (yoki) narxini qaytarishni talab qilish huquqiga ega. Agar Aksiya Ishtirokchisi tovar uchun to'langan pul mablag'ini qaytarib olishga haqli bo'lsa, unga qaytariladigan summa miqdori u aslida to'lagan pul miqdoridan oshmaydi (masalan, 15000

so'mlik buyurtma uchun 5000 so'm nominaliga ega kupon faollashtirilgan bo'lsa, qaytarish summasi 10 000 so'mdan ortiq bo'lmaydi). Tovar qaytarilishi va (yoki) pul mablag'ining qaytarilishi sababli yangi Promokod chiqarib berilmaydi hamda Promokoddan foydalanilgan holda xarid yoki operatsiyadan keyin qaytarish amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu Promokod nominali avtomatik ravishda muomaladan chiqarib yuboriladi.

2.10. Bir nechta Promokodni bir vaqtning o'zida qo'llab bo'lmaydi. Bitta buyurtma bo'yicha faqat bitta Promokodni qo'llash mumkin; Promokodni bir vaqtning o'zida boshqa promokodlar, kuponlar, reklama takliflari, chegirmalar va h.k. bilan faollashtirib bo'lmaydi.

2.11. Promokodlar qonun doirasidagi to'lov mablag'i hisoblanmaydi, va hech bir holatda Provayder yoki AliExpress Aksiya Ishtirokchisiga har qanday muomaladan chiqarilgan yoki foydalanilmagan Promokod uchun pul mablag'ini yoki shunga teng ekvivalentdagi mablag'ning o'rnini qoplab berishga, boshqa shaxsga berishga va pul mablag'iga almashtirishga majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

2.12. Provayder aliexpress.ru saytida xarid qilingan tovarlar va xizmatlar sifati, ularning o'z vaqtida yetkazilishi, chegirma to'g'ri hisob-kitob asosida qo'llanilishi bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

3. Yakuniy qoidalar

3.1. Mazkur Qoidalar Provayder Saytida e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Provayder ushbu Qoidalarni bir tomonlama tartibda o'zgartirish yoki Aksiyani bekor qilish huquqiga ega, buning uchun u Saytda tegishli xabarni joylashtirgan holda bu haqda oldindan ma'lum qilishi kerak. Saytda tegishli ma'lumot joylashtirilgan sana ma'lum qilish sanasi hisoblanadi. Saytda tegishli ma'lumot e'lon qilingan vaqtdan boshlab Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa bekor qilingan hisoblanadi.

3.2. Mijoz tomonidan Promokod qabul qilinishi va Qoidalarning 2.4 bo'limida sanab o'tilgan harakatlarning bajarilishi jismoniy shaxslarga yo'llangan oferta hisoblangan Qoidalar bilan to'liq va so'zsiz rozilikni anglatadi.